



## BADIY ASARLARNI O'RGANISHDA ASSOTSIATIV YONDASHUVLAR

**Kambarova Saodat Irkinovna,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)  
e-mail: [saoatat\\_irkinovna@mail.ru](mailto:saoatat_irkinovna@mail.ru), +998-95-180-24-73*

**ORCID:0000-0010-0005-7731**

**Annotasiya.** Maqolada umumiy o'rta ta'lif maktablari adabiyot darslarida o'quvchilarni badiiy matnda mujassamlantirilgan dunyoning badiiy tasviriga erkin yo'naltirish va har bir adabiy komponentni assotsiativ ko'rish qobiliyatini rivojlantirish mazmuni yoritiladi. Shuningdek, muayyan asarni o'qishda badiiy analogiya izlarini topish, badiiy matnning muayyan komponentini qiyosiy tahlil qilish, o'xshashlik mohiyatini izohlash usullari bayon etiladi.

**Kalit so'zlar.** Assotsiativ kontekst, mavzu, g'oya, kompozitsiya, sujet, epizod tahlili, obrazlar tasnifi, badiiy detal.

## АССОЦИАТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА

**Абстрактный.** В статье рассматривается содержание уроков литературы в общеобразовательной школе, цель которых – свободно ориентировать учащихся на художественное изображение мира, воплощенное в художественном тексте, развивать умение ассоциативно воспринимать каждый литературный компонент. Описываются также методы обнаружения следов художественной аналогии при чтении конкретного произведения, проведения сравнительного анализа определенного компонента художественного текста, объяснения сущности сходства.

**Ключевые слова.** Ассоциативный контекст, тема, идея, композиция, сюжет, анализ эпизода, классификация образов, художественная деталь.

## ASSOCIATIVE APPROACHES TO STUDYING WORKS OF ART

**Abstract.** The article covers the content of literature lessons in general secondary schools, which aim to freely orient students to the artistic image of the world embodied in a literary text and to develop the ability to associatively perceive each literary component. It also describes the methods of finding traces of artistic analogy when reading a particular work, conducting a comparative analysis of a specific component of a literary text, and explaining the essence of similarity.

**Keywords.** Associative context, theme, idea, composition, subject, episode analysis, classification of images, artistic detail.



## KIRISH

Ma'lumki, har qanday asarda o'z ahamiyatiga ko'ra eng katta semantik yukni ko'taradigan alohida so'zlar guruhi mavjud bo'ladi. Ular kompozitsiya yaratish, qahramon obrazi, harakatlar rivojlanishi, shuningdek, g'oyaviy-mavzuviy mazmunni shakllantirish uchun o'ziga xos asos sanalib, kalit so'zlar deb nomlanadi. Ularning asosiy xususiyati asarning umumiyligi mazmuniga tegishli bo'lib, qahramonlar xarakteridagi individuallikni ochishga, matnni hissiy idrok etishga, ifodalangan xoslikni aniq va mos so'zlar orqali tasvirlashda namoyon bo'ladi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarni matndan tayanch so'zlarni topish, ularning konseptual mohiyatini aniqlash va ko'p qirrali tushunchalariga asoslanib, matn maydoniga tegishli xususiyatlarni o'zlashtirishga o'rgatishdir. O'qituvchi o'quvchilar kalit so'zlarning konseptual mohiyatini tushunishlari uchun quyidagicha algoritmni taklif qilishi maqsadga muvofiq:

- 1) "Izohli lug'at"dan so'zning lug'aviy ma'nosini, "Etimologik lug'at"dan kelib chiqishini aniqlash;
- 2) so'zning assotsiativ sohasini tuzish, ya'ni "Bu so'z qanday so'zlar bilan assotsiatsiyalar hosil qiladi?" degan savolga javob topish;
- 3) so'zni o'z ichiga olgan maqol va matallarni aniqlash;
- 4) qahramon obrazi, turmush tarzi, dunyoqarashi va xatti-harakatlarini ifodalashda qo'llangan so'zlarni aniqlash.
- 5) so'zning g'oyaviy-mavzuviy roli va butun ish mazmunini baholash kabilari.

Ushbu algoritm yildan yilga tizimli holda qo'llanilishi va o'qituvchining tajribalari orqali to'ldirib borilishi mumkin. Masalan, o'qish tajribasini boyitish bilan assotsiativ maydon kengayadi. Bu xalq an'analari va diniy sohalar, badiiy obrazlar, o'rganilayotgan asar, boshqa xalqlar adabiyotining o'ziga xos tasvirini tasavvur qilishga yordamlashadi. Metodist Q.Husanboyeva kalit so'zlar bilan ishlash, asosan, peyzaj lirikasi tahlilida qo'l kelishiga e'tiborini qaratadi. "Mavzu atrof olam bilan aloqada o'rganiladi, – deydi olima. – O'quvchilar birgalikda tabiat hodisalarini kuzatadilar, ko'rganlarini badiiy ifodalashga urinadilar va hk. Qo'llangan so'z va iboralardan mavzu uchun muhimlari ajratiladi. Bunday mustaqil izlanishlar o'quvchining dunyoqarashini kengaytiradi, peyzaj tasviridagi badiiylik va aniqlikni



kashf ettiradi. Matnni o'zlashtirish emotsiyal, ongli tarzda amalga oshadi". Bizningcha, kalit so'zlar bilan ishlashni peyjaz lirkasi qatori boshqa mavzular doirasida qo'llash ham maqsadga muvofiq. Zero, badiiy asarning mavzu ko'lami nihoyatda keng va xilma-xildir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'quvchilarda badiiy adabiyot vositasida ma'naviy-madaniy qadriyatlarni kashf qilish, estetik didni yuksaltirish, matnni chuqur idrok etishga ko'maklashish maqsadi ustuvor bo'lgan ta'lif paradigmasida zamonaviy adabiy ta'lif konsepsiyasini amalga oshirish bilan bog'liq dolzarb muammolar alohida o'rinni tutadi. Bunda fanning o'tmishdagi va bugungi istiqlol davri metodikasi tajribalari hisobga olinadi. Adabiyot metodikasi tarixida uni o'quv fani sifatida o'qitishga dastlabki ilmiy urinishlar S.Dolimov, H.Ubaydullayev, Q.Ahmedov, N.Mallayev, A.Zunnunov, S.Ismatov, T.Boboyevlarning tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Keyinchalik M.Mirqosimova, Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, U.Dolimov, O.Madayev, V.Qodirov, Ye.Abdusalitov, Q.Yusupov, N.Yuldasheva, R.Keldiyorov, M.Tursunova kabi metodist olimlar tajribalarida badiiy asar tahliliga tizimli yondashuv, yangilangan pedagogik tafakkur, mustaqil ishlarni tashkil etish, mustaqil fikrlash va bu jarayonda muammoli ta'lifning o'rni, madrasalar va jadidchilik ta'lifoti, mumtoz namunalarni o'qitish, xalq og'zaki ijodini qiyosiy o'rganish, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, adabiyot darslarini samarali tashkil etish kabi muammolar doirasida tadqiq etilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy matndagi asosiy so'zlar orasida eng katta semantik yukni tasvir funksiyalari amalga oshiradi. Demak, bino (uy), uning ichki qismi (shift, deraza), tabiat hodisasi (momaqaldoq, shudring), o'simlik dunyosi elementlari (daraxt, gul), inson a'zolari (yurak, ko'zlar) va boshqalarni bildiruvchi bu so'zlardir. Ularning har biri bajaradigan funksiya va estetik yuk mavjud, birini boshqasiga qiyoslab bo'lmaydi. Taniqli adib O'.Hoshimovning quyidagi o'xshatishi ham aynan shunga monandir: "Asar binoga o'xshaydi. Faqat bino g'ishtdan quriladi, asar esa so'zdan. Endi bir narsani tasavvur qilib ko'ring: bitkazilgan binodan bitta g'ishtni sug'urib olsangiz, uning husniga shikast yetadi. O'nta g'ishtni ko'chirsangiz, bino bosib qoladi.



Shunday asarlar borki, butun-butun jumlalarni olib tashlasangiz ham, mingtasi o'rnini almashtirsangiz ham hech nima o'zgarmaydi. Bunaqangi "asar" binoga emas, vayronaga o'xshaydi".

O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga ushbu so'zlar ma'nosini ochish va boshqa so'zlar bilan ta'sirlashish mexanizmini tushunish bo'yicha ishlarga jalb qilishdir. Bu jihat ikkita asosiy komponentni o'z ichiga oladi:

- matnning har bir bo'lagida obrazning badiiy rolini aniqlash (tahlil);
- parcha holidagi ma'nolarni bir butunlikka keltirish, barchasini asar g'oyasi atrofida umumlashtirish (sintez).

Badiiy analogiyani o'rganish muhim sanalgan adabiyot darslarida o'quvchilarni matnda mujassamlantirilgan dunyoning badiiy tasviriga erkin yo'naltirish va har bir adabiy komponentni assotsiativ ko'rish qobiliyatini rivojlantirish muhim sanaladi. Muayyan asarni o'qishda badiiy analogiya izlarini topish, qiyosiy tahlil qilish o'xhashlik mohiyatini izohlash imkonini paydo bo'ladi. Analogiyaga asoslangan qiyoslash badiiy matnning muayyan komponentini assotsiativ kontekstga muvofiq tadqiq etishni taqozo qiladi. Quyida bunday faoliyat uchun asos sanaladigan ayrim variantlarni tadqim etamiz:

**1. Asar mavzusini belgilashda assotsiativ kontekstga tayanish.** Jumladan, bunga O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarini o'rganayotganda adibning "Urushning so'nggi qurboni", E.Vohidovning "Nido", R.Fayziyning "Hazrati inson" asarlaridagi urush mavzusini misol tariqasida ko'rsatish joiz.

**2. Asar g'oyasini aniqlashda assotsiativ kontekstga tayanish.** Xususan, Oybekning "Bolalik" qissasidan olingan "Bolaning ko'ngli poshsho" hikoyasini tahlil qilishda asardagi asosiy fikr "bolaning ko'ngliga qarash" va unga mos holda "qalb", "istak", "beg'uborlik" tushunchalarini ko'rib chiqish mumkin. "Qalb", "soflik" so'zлari assotsiativ kontekstda T.Tolanning "Do'nan", A.Sent Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asarlariga mos keladi.

**3. Asar kompozitsiyasini ko'rib chiqishda assotsiativ kontekstga tayanish.** Jumladan, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini o'rganish jarayonida kompozitsiyaga "hikoya ichidagi hikoya"ni ifodalovchi asarlar, "adabiy ramka"larga diqqat qaratish zarur. Masalan, bu o'rinda "Uch og'a-ini botirlar" ertagidagi "To'ti



voqeasi”, Alisher Navoiyning “Sab'ai sayyor” dostonidagi qoliplovchi hikoyatlar kompozitsiyasini eslash o'rinnlidir. Mazkur jarayonda asar kompozitsiyasi, hikoyachi obrazining ahamiyati, ularni birlashtiruvchi jihatlar va o'ziga xosliklar haqidagi savollarga javob izlanadi. Yaqin tushunchalarni ushbu asarlar doirasida ko'rib chiqish imkoniyati kengayadi.

**4. Asar sujetini ko'rib chiqishda assotsiativ kontekstga tayanish.**  
Masalan, qadimgi madaniy obidalarga doir materiallarni o'rganishda “O'rxun-Enasoy yodgorliklari”, “Devonu lug'otit-turk” yoki “Hibat ul-haqoyiq” asarlari sujetidagi ba'zi o'xshashliklarga e'tibor qaratiladi. Shunga o'xshash sujetlarni “Xamsa” dostonlarida ham uchratish mumkin.

**5. Asar epizodi tahlilida assotsiativ kontekstga tayanish.**  
Ch.Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani qahramoni Onaning fidoyiligi tasviri orqali assotsiativ-kontekstli taqqoslashdan foydalanish mumkin. Masalan, O'.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi “Gilam paypoq” parchasi, “Urushning so'nggi qurban” hikoyasi, S.Ahmadning “Ufq” trilogiyasidagi Ona obrazlari fikrimizning yorqin dalilidir. Yoki A.Qahhorning “Dahshat” hikoyasi qahramonlari kelishuvi (Unsinning qabristonga borib choy qaynatishiga sabab bo'lgan lavha) bilan A.Chexovning “Garov” hikosidagi bankir va huquqshunos yigit o'rtasidagi voqealar shular jumlasidandir.

**6. Adabiy obraz tavsifini tuzishda assotsiativ kontekstga tayanish.**  
Masalan, Oybekning “Navoiy” romanidagi ulug' zot obrazi xususiyatlarini Izzat Sulton va Uyg'unning “Alisher Navoiy”, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” yoki Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarlari sujetiga qiyoslab tahlil qilish mumkin. Bunday taqqoslash o'quvchilarga Navoiy obrazining boshqa adiblar va o'zbek adabiyoti kontekstidagi o'rnini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shoir shaxsiyati haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytiradi.

**7. Asardagi badiiy detalning ma'nosini aniqlashda assotsiativ kontekstga tayanish.** Detal badiiy asar kompozitsiyasida o'z o'rnini topgandagina vazifasini to'g'ri o'tay oladi. U yozuvchini ko'p so'zlikdan, “adabiy laqma”likdan saqlaydi. Qisqalik va mazmundorlikka erishish – badiiy detalning xarakterli xususiyati. Masalan, A.Qahhorning “Dahshat” va I.Sultonning “Shamolli kecha”



hikoyalaridagi shamol, Luqmon Bo'rixonning "Quyosh hali botmagan" asari bilan P.Koeloning "Alkimyogar"dagi sahro, N.Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" va U.Folknerning "Ayiq" asarlaridagi o'rmon badiiy detallari shular jumlasidandir.

O'quvchilar asarni chuqurroq tushunishlari uchun o'rganilayotgan matnni muayyan badiiy parametrlarda unga o'xhash boshqa matn bilan qiyosiy tahlil usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu "boshqa" matn o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga uning fonida o'rganilayotgan asarga xos xususiyatlarni aniqlashga yordam beradigan tarzda tanlanadi. Bunday matn maktab o'quvchilariga allaqachon tanish bo'lgan asar doirasida bo'lishi ham mumkin. Asar epizodi, tasvir, motiv, mavzu va g'oyasining ma'nosini o'zlashtirish uchun boshqa xalqlar adabiyotiga murojaat qilish kutilgan natijani ta'minlaydi. Natijada o'quvchilar ijod olamining jozibasi va murakkabligini, adabiyotning serqirra jihatlarini tushunib boradilar. D.Dumbadze, A.Qo'nonboyev, J.Vern, E.S.Tompson, E.Hemenguey, R.Hamzatov, A.Chexov, Muhammad Fuzuliy, R.Thokur, S.Yesenin, Ch.Aytmatov, O'.Sulaymonov, R.N.Guntekin kabi adiblar ijodi xususida fikr yuritish, turli xalqlar madaniyatining yaqinligini, yurtimizda istiqomat qiladigan boshqa xalqlar ma'naviy qadriyatlaridagi umumiyligini ko'rishlari mumkin bo'ladi.

Badiiy asar ma'nosini muallif nuqtayi nazariga adekvat talqin etishning eng samarali usullaridan biri turli xalqlar maqollarida ifodalangan hikmatlarga konseptual tayanishdir. Xalq maqollari mavzusi, g'oyasi, motivlari va qahramonlar xulq-atvoriga aforistik illustrasiya sifatida u yoki bu dastur badiiy matnini o'rganish kontekstiga kirishi uning badiiy-falsafiy ahamiyatini teran anglashga hissasini qo'shadi. Ta'kidlangani kabi yondashuvlar metodistlar Ye.B.Abdusalitov, Sh.B.Bulekbayeva, N.B.Abdusalitov, N.N.Yusufjonova kabi metodistlarning ilmiy izlanishlarida turli janrdagi asarlarni qiyosiy o'rganishga doir ishlari misolida kuzatiladi. Jumladan, tadqiqotchi Sh.B.Bulekbayeva mazkur xususiyatni o'zbek xalqidagi "Bir mayizni qirq bo'lib yemoq" iborasiga misolida qozoqcha "Jartы qyrтты белип jeu" iborasiga adekvat holda qo'llash mumkinligini qayd etadi. Mana shunday materiallarni tanlay bilish va havola qilish o'quvchilarda qardosh xalqlar tarixi, madaniyati, an'ana va qadriyatlariga qiziqish uyg'onishiga, ildizlari yagona millat va elatlarning turmush tarzidagi o'ziga xoslikni qiyoshlashiga imkoniyatni



kengaytiradi. "Bir mayizni qirq bo'lib yeish" ko'l, daryo va bog'-rog'larga mol hududda o'troq hayot kechirgan o'zbeklarning bog'dorchilik, "Jartы qyrtsy belip jeu" qozoqlar yashagan keng hududlar (sahro, qir-adir)ning aksariyat qismi chorvachilikka qulayligi uchun aholisining turmush tarzi shu sohaga moslashgani xususida ma'lum tasavvur hosil qiladi. Har ikki xalq e'tiqodi, madaniyati va kundalik hayotidagi mushtaraklik va farqli tomonlarni o'zida mujassamlashtiradi.

O'qituvchining ahamiyat qaratishi zarur sanalgan vazifalardan biri – bu o'quvchilarda xalq og'zaki ijodi motivlari asosida yaratilgan badiiy obrazlarga xos umuminsoniy fazilatlarni ochib berishdan iborat. O'zbek adabiyoti kontekstida o'quvchilar islom motivlarini tushunishlari uchun hadislarga murojaat qilgan holda, odamiylik, sabrlilik, shukronalik va halollik kabi sifatlar mohiyatiga kirib boradilar. Barcha davrlarda ham jamiyatdagi me'yordan ortiq isrofgarchilik, eklektizm yoki axloqsizlik g'oyalari bilan to'yingan muhit shaxsning parchalanishiga olib keladi. Shunday sharoitda mumtoz adiblar badiiy idealini ko'ra oladigan, "ma'naviy tashnalik"ni qondira oladigan adabiyot o'qituvchisining o'rni, bilimdonligi va kasbiy mahorati alohida o'ringa ega.

## XULOSA

Badiiy matnni bir necha aspektda ko'rib chiqish mumkin. Birinchidan, u ko'rib chiqilayotgan real yoki xayoliy bir obyekt yoki vaziyatga nisbatan o'rganiladi. Ikkinchidan, har qanday adabiy bitik muallif – asar – kitobxon muloqoti jarayonida o'z hayotini o'taydi, bunda, asosan, adresat nuqtayi nazari diqqat markazida bo'ladi. Shunga ko'ra, tasvirlangan voqelik yoki hodisani qabul qiluvchi kitobxon javobi bilan uzviy bog'liqligi matning kommunikativ xususiyatini ajratib ko'rsatadi. Uchinchidan, har qanday badiiy matn boshqa matn bilan bog'lanmagan holda mavjud emas. U, asosan, asarga javob, munosabat yoki matnlar dialogida mulohazalar tarzida namoyon bo'ladi.

Darsni rejalashtirishda asarni badiiy idrok etish va estetik baholash uchun o'quvchilarning aqliy faoliyati va tasavvurlarini faollashtiradigan usullarni tanlash zarur. O'qituvchi shuning uchun o'quv topshiriqlarini qo'yishga mas'uliyat bilan yondashishi muhim, ya'ni o'quvchi asardan muayyan parchani o'qish texnikasi bilan tanishtiriladi. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni muallif nuqtayi nazariga

yaqinlashtirishdir. O'rganilayotgan asarlarni badiiy talqin qilish shaxs parchalanishining oldini olish, uni qayta tiklash va birlashtirishdagi samarali vositadir. Demak, adabiyot darslarida badiiy matn tahliliga konseptual yondashuvning yuqoridagi elementlari uning an'anaviy tuzilishini mustahkamlagan holda madaniy ta'sir yo'nalishlarini kengaytiradi.

O'qituvchi darsga tayyorlanayotganda badiiy matn mazmunini talqin qilishning ilmiy asoslangan quyidagi turlarini tanlashi muhim sanaladi:

1. Asardagi konflikt tahlili. Umumiy boshlanishlar ichida bo'lish asar zamiridagi ziddiyatlarni yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

2. Bir xillikdagi turli talqinlarni solishtirish, taklif qilingan variantining metodik asoslarini aniqlash, tahlil qilish va asoslash. Turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash zarurati zamirida, albatta, o'quvchining masala yuzasidan ehtiyoj va shaxsiy qarashlari yotadi.

3. Badiiy asar tahliliga oid har xil talqinlarni mustaqil o'rganish (asarning umumiy ma'nosini tushunish variantlari, muallif nuqtayi nazari bilan bog'liqlik, ramziylik). Bunga sarlavhani talqin qilishga urinish ham kiradi. Asar, albatta, matnga chuqur kirib borishni talab qiladi. Ramzlar turli adabiy talqinlarni keltirib chiqaradi.

4. Asarni badiiy ijodning boshqa turlariga "o'zgartirish" shakllari, misollar orqali asoslash va qisman amalga oshirish, dramatik asarning u yoki bu talqini (sahna harakatlarini yaratish, rejissyor izohlarini yozish, manzara chizish va boshqalar).

5. Darsda badiiy ijodning turli elementlaridan foydalanish. O'quvchilarni "professional" tarjimon sifatida harakat qilish zaruratini oldiga qo'yadigan nutq vaziyatlari, zamonaviy adabiyotni muhokama qilish uchun "Yosh tanqidchilar klubi yig'ilishi" darsi va boshqalar.

Badiiy asarga shaxsiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan o'quv tahlili o'quvchining mustaqil o'qish faoliyati orqali amalga oshiriladi. Bu yagona jarayon bo'lib, uning natijasi boy ijodiy tasavvurga, adabiy bilimlar zaxirasiga, badiiy asarni idrok etish va uni mustaqil talqin qilish qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchining yetarli darajadagi malakasi va uquvi hisoblanadi. Badiiy asarni shaxsiy idrok etish



individual jarayon bo'lib, faqat o'qituvchigina buni samarali bajarishga yordam beradigan sharoitlarni yaratadi. Bunday o'quv jarayoni davomida u o'quvchiga teng bo'lgan tadqiqotchiga aylanadi.

Xulosa qilganda, adabiyotni an'anaviy tarzda o'qitish o'qituvchi zimmasiga o'quvchi kashfiyotlarining tayyor natijalari va adabiyotshunoslikka oid bilimlar "uzatuvchisi" rolini yuklaydi. Bunday holat o'quv jarayonini rasmiylashtiradi, tahlil va talqinda tarbiyalanuvchilarni ijodiy impulslardan mahrum qiladi, yaratuvchanlik kurtaklarini so'ndiradi. Badiiy bitiklarga estetik hodisa sifatida munosabatda bo'linadigan adabiy mashg'ulotlarda muallif dunyoqarashi idrok etilishi uchun assotsiativ yondashuv o'quvchi va o'qituvchining hamkorlikdagi ijodiy faoliyati muhim jihat sanaladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдувалитов Н.Б. Умумий ўрта таълим мактабларида жаҳон адабиёти намуналарини ўқитиш назарияси ва амалиёти. Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – 140 б.
2. Булекбаева Ш.Б. Она тилини давлат тили билан коммуникатив-когнитив асосда қиёсий ўргатиши (Таълим қозоқ тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида). Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 49 б.
3. Ҳошимов Ў. Нотаниш орол. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – 192 б.
4. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 368 б.
5. Юсуфжонова Н.Н. Туркий халқ эпосларини қиёсий-типологик ёндашув асосида ўқитиш технологияси. Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – 144 б.